



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2024-yil 17-iyul

202-7-0-Q/24

Samarqand viloyati hokimligi

## **Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi “Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 149-son va 2023-yil 11-avgustdagi “Vazirlar Mahkamasining “Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2011-yil 25-maydagi 149-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 358-son qarorlariga asosan viloyat hududida qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlanishini takomillashtirish, transport vositalari saqlanishi uchun javobgarlikni oshirish maqsadida

### **Q A R O R   Q I L A D I :**

1. Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflari miqdori ilovaga tasdiqlansin.

2. Viloyat IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Sh.Boyxo‘rozov):

qonun hujjatlari buzilganligi uchun vakolatli davlat organlari tomonidan ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish, saqlash, hisobini yuritish va olib chiqib ketishga ruxsat berish ishlarini “Jarima maydonchasi” axborot tizimi orqali amalga oshirilishi;

qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelinishi, joylashtirilishi va saqlanishida qonuniylikning ta‘minlanishi

hamda sanitariya va yong'inga qarshi qoidalarga rioya etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin.

3. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) transport vositalarini saqlash xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan soliqlarni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda o'z vaqtida undirilishini ta'minlasin.

4. Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov) viloyat IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Sh.Boyxo'rozov), shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 149-son qarori bilan tasdiqlangan "Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarni ochiq tanlov asosida elektron tarzda tanlab olish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish ishlarini umumiy muvofiqlashtirilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimining 2021-yil 9-martdagi "Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to'xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning cheklangan miqdorini tasdiqlash to'g'risida" 40-Q-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" MChJ (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida rasman e'lon qilinishini va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Viloyat hokimi**



**E.Turdimov**



Samarqand viloyat hokimining  
2024-yil 17-iyuldagi  
202-7-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida qonun hujjatlari buzilganligi  
uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish,  
joylashtirish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov  
tariflari**

**MIQDORI**

<b>T/r</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>		<b>Miqdori (bir o‘lchov birligi uchun – QQS bilan) (so‘m)</b>
1	Yengil avtomobillarni saqlab turish xizmati	1 dona	Soat	2 551
2	Yuk avtomobillarni saqlab turish xizmati	1 dona	Soat	2 551
3	Transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish (tashish) bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmat (evakuator xizmati) uchun	1 dona	6 km.gacha	50 668
			6 kmdan - 10 km.gacha	84 447